

## ZIG`IR (Linum usitatissimum) O`SIMLIGINING KIMYOVIY TARKIBI VA ISHLATILISHI

**Qurbanova Latofat Mamadiyorovna**

**Ibrohimova Zamira Ismat qizi**

Jizzax politexnika instituti

+998915688007

**Annotatsiya:** Maqolada o`simlikning asosiy xususiyatlari bachadon va yo`g`on ichakda shish bo`lganda hamda buyrak va qovuq kasalliklarida, gastrit, me`da yarasi kasalliklarini, yo`tal, angina kasalliklarini davolashda qo`llanilishi yoritilgan.

**Kalit so`z:** oqsillar, dori preparatlari, surgu dori suyuq surtmalar, linimentlar sovun, linetol, ateroskleroz, gastrit, angina.

**Annotation:** The main properties of the plant are described in the treatment of edema of the uterus and colon, as well as in diseases of the kidneys and bladder, gastritis, peptic ulcer disease, cough, angina.

**Keywords:** proteins, drugs, antifungal liquid ointments, linimentsoap, linetol, atherosclerosis, gastritis, angina.



Zig`irdoshlar – Linaceaye oilasiga mansub, bir yillik o`simlik. Poyalari kam shoxlangan. Ular ikki xil: bo`yi 60 - 120 (Len dolgunets - baland bo`yli zig`ir) yoki 30-50 sm (Len kudryash-pakana zig`ir) bo`ladi. Barglari nishtarsimon yoki tor nishtarsimon bo`lib, bandsiz poya va shoxlarida ketma-ket o`rnashgan. Zangori rangli, besh bo`lakli gullari poya va shoxlarining uchida yakka-yakka joylashgan. Mevasi – sharsimon, 10 ta urug`li ko`sak.

Aprel – may oylarida gullaydi, iyun –avgustda mevasi pishadi. Geografik tarqalishi jihatidan yovvoyi zig`ir Zomin adirlarida uchraydi.

Qo`llaniladigan qismi asosan urug`i va undan olinadigan moyi. Mevasi yetilganda o`simlik kombaynlarda yoki qo`l bilan yig`ib olinadi, xirmonda quritiladi, yanchiladi va sovurib urug`i ajratib olinadi. Urug`idan zavodlarda moy olinadi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishiga to`htaladigan bo`lsak, urug`i tarkibida 5 – 12 % shilliq modda, 30-48% yog`, 18-33% oqsil va boshqa birikmalar bor. Urug`ining dori preparatlari (15 – 20 % li qaynatmasi) me`da –ichak shilliq qavatlarini yallig`lanishida o`rab oluvchi va yengil surgu dori sifatida, nafas yo`llari yallig`langanda tomoq va og`iz chayish uchun qo`llaniladi.

Urug`ining kunjarasi- poroshogi tananing og`riydigan joylariga qizdirib qo`yiladi. Zig`ir yog`idan yengil surgu sifatida va quygan joylarni davolashda hamda farmatstevtika amaliyotida suyuq surtma dorilar – linimentlar va tibbiyotda sovun tayyorlashda foydalaniladi. Zig`ir yog`idan olingan linetol preparati ateroskleroz kasalligini davolash va uning oldini olishda hamda turli kuyishlarda, kuygan joylarga surtish uchun ishlatiladi. Qovurilgan zig`ir urug`ini Abu Ali ibn Sino ich ketishi va boshqa me`da kasalliklariga, yo`talga davo qilgan, ezilgan urug`ni shishga va chipqonga qo`ygan. Bachadon va yo`g`on ichakda shish bo`lganda hamda buyrak va qovuq kasalliklarida zig`ir urug`i qaynatmasiga tushib o`tirishni tavsiya etgan. Zig`ir urug`idan tayyorlangan qaynatma xalq tabobatida gastrit, me`da yarasi va uning boshqa kasalliklarini, yo`tal, angina, buyrak kasalliklarini davolashda qo`llanib kelinadi. Shu qaynatmaga sut qo`shib o`pka sili bilan kasallangan bemorga beriladi. Maydalab ezilgan yoki pishirib ezilgan zig`ir urug`i chipqon va shishlarga quyib bog`lanadi. Zig`ir moyidan oziq-ovqat sanoatida va texnikada keng foydalaniladi. Ayniqsa issiqligicha bod, radikulit, nervolgiya va boshqa shamollash

kasalliklarida tananing ogʻrigan yeriga qoʻyiladi. Bundan tashqari ateroskleroz kasalligida ham bu oʻsimlikdan foydalaniladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nabiyev M. Muxtarov M. M. Turkona davo va soda muolajalar. Ibn Sino Toshkent. 2003.
2. Hamidjon Zohidov "Shifo xazinasi" I.II.III tom Toshken, Yangi asr avlodi, 2004.
3. Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" 2-kitob. Toshkent 1992 yil.
4. Madraxhimov A.S. Ibn Sino shifobaxsh oʻsimliklar haqida "Mehnat", Toshkent 1990 y.
5. L.M.Qurbanova, D.N.Qurbonova. //Zomin shifobaxsh oʻsimliklarining hususiyatlari. "Journal of Natural Sciences" №3 2021 y.154-157 b. <http://natscience.jspi.uz>
6. L.M.Qurbanova, D.N.Qurbonova. //Boymadaron (herba millefol II) yer ustki qismining tabobatda qoʻllanilishi. "Journal of Natural Sciences" №2 (7) 2022 y.57-59 b.
7. L.M.Qurbanova, D.N.Qurbonova. //Yalpiz (Myata perechnaya)ning dorivor xususiyati "Journal of Natural Sciences" №2 (7) 2022 y.54-56 b.